

INGLIZ MEDIA DISKURSIDA XABAR BERISH JARAYONIDA LEKSIK VA SINTAKTIK USLUBIY VOSITALARNING FUNKSIONALLIGI

¹Saidova Muxayyo Umidullayevna, ingliz tilshunosligi kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Tursunova Sarvinoz G'afurovna,
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

FUNCTIONALITY OF LEXICAL AND SYNTACTICAL STYLISTICAL MEANS IN THE PROCESS OF REPORTING IN ENGLISH MEDIA DISCOURSE

¹Saidova Mukhayyo Umidullayevna, Associate Professor of the
Department of English Linguistics,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

²Tursunova Sarvinoz Gafurovna, 2nd year Master's student in
Linguistics (English)

ФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ ЛЕКСИЧЕСКИХ И СИНТАКСИЧЕСКИХ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПРОЦЕССЕ РЕПОРТАЖА В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ

¹Саидова Мухайё Умидуллаевна, доцент кафедры
английского языкознания, доктор философии по филологическим
наукам (PhD)

²Турсунова Сарвиноз Гафуровна, магистрант 2 курса по
направлению «Лингвистика» (английский язык)

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz media diskursida xabar berish jarayonida leksik va sintaktik uslubiy vositalarning funkcionalligini tahlil qiladi. Maqolada, xabar berish uslubi, uning struktura va mazmuni, shuningdek, leksik birliklar va sintaktik konstruksiyalar orqali qanday qilib ma'lumotni samarali yetkazish mumkinligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: media diskurs, leksik uslubiy vositalar, sintaktik uslubiy vositalar, epithet, metafora, metonimiya, oksimoron, evfemizmlar, litota, giperbola, inversiya, parallel tuzilma, antiteza.

Аннотация: Данная статья анализирует функциональность лексических и синтаксических стилистических средств в процессе новостного освещения в английском медиадискурсе. В статье рассматривается стиль новостного освещения, его структура и содержание, а также то, как можно эффективно передавать информацию посредством лексических единиц и синтаксических конструкций.

Ключевые слова: медиадискурс, лексические стилистические средства, синтаксические стилистические средства, эпитет, метафора, метонимия, оксюморон, эвфемизмы, литота, гипербола, инверсия, параллельная конструкция, антитеза.

Abstract: This article analyzes the functionality of lexical and syntactic stylistic devices in the news reporting process within English media discourse. The article examines the style of news reporting, its structure and content, as well as how information can be effectively conveyed through lexical units and syntactic constructions.



m.u.saidova@buxdu
.uz
sarvinoztursunova9
94@gmail.com

Key words: *media discourse, lexical stylistic devices, syntactic stylistic devices, epithet, metaphor, metonymy, oxymoron, euphemisms, litotes, hyperbole, inversion, parallel structure, antithesis.*

Kirish. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va global kommunikatsiyaning kengayishi bilan birga, media diskursda xabar berish jarayonining ahamiyati ortib bormoqda. Ingliz media diskursi, o'zining xilma-xilligi va dinamikligi bilan, turli xil leksik va sintaktik uslubi vositalarni o'z ichiga oladi. Bu vositalar xabar berish jarayonida ma'lumotlarni samarali va ta'sirchan tarzda yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Leksik vositalar, jumladan, so'z tanlovi va ularning ma'nolari, xabarning mohiyatini ochib berishda va o'quvchining e'tiborini jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Sintaktik vositalar esa, jumla tuzilishi va grammatik uslublar orqali xabarning aniq va ravon ifodalanishiga xizmat qiladi. Xabar berish jarayonida ushbu vositalarning qanday ishlatilishi, o'quvchining qabul qilish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi va axborotning ta'sirchanligini oshirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. I.R. Galperinning "Stylistics"¹ kitobi tilshunoslik sohasida uslubiy vositalarni o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Kitobda uslubiy vositalar ikki asosiy guruhga bo'linadi.

1. Leksik uslubiy vositalar (Lexical stylistic devices). Ushbu guruh so'zlar va iboralarning ma'nosi, uslubiy bo'yog'i, hissiy ta'siri va vazifasi bilan bog'liq bo'lgan uslubiy vositalarni o'z ichiga oladi.

Epithet (Epithet)-ob'ektning xususiyatini ta'kidlaydigan, unga hissiy baho beradigan sifatlovchi so'z yoki ibora. Epithetlar ob'ektni yanada aniq va ta'sirli qilib tasvirlashga yordam beradi.

Metafora (Metaphor)-bir ob'ektning xususiyatlarini boshqa ob'ektga ko'chirish orqali yashirin taqqoslash. Metafora ob'ektni yangicha ko'rishga va uning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Metonimiya (Metonymy)-ob'ektni unga aloqador bo'lgan boshqa bir narsa bilan almashtirish. Metonimiya ob'ektni ixcham va ta'sirli tarzda ifodalashga imkon beradi. Ironiya (Irony)-aytilgan ma'noning teskarisini anglatadigan uslubiy vosita. Ironiya ob'ektni kulgili yoki tanqidiy nuqtai

nazardan tasvirlashga yordam beradi.

Oksimoron (Oxymoron)-ma'nosi jihatidan bir-biriga zid bo'lgan so'zlarning birikishi. Oksimoron ziddiyatli ma'noni ifodalash va o'quvchining diqqatini jalb qilish uchun ishlatiladi.

Litota (Litotes)-ma'noni kuchaytirish uchun inkor shaklidan foydalanish. Litota ob'ektni nozik va ta'sirli tarzda ifodalashga imkon beradi.

Giperbola (Hyperbole)-ob'ektning xususiyatlarini kuchaytirib ko'rsatish. Giperbola o'quvchining diqqatini jalb qilish va ta'sirchanlikni oshirish uchun ishlatiladi.

Perifraza (Periphrasis)-ob'ektni to'g'ridan-to'g'ri atamasdan, uning xususiyatlarini tasvirlash orqali ifodalash. Perifraza ob'ektni yanada nafis va qiziqarli qilib tasvirlashga yordam beradi.

Evfemizm (Euphemism)-qo'pol yoki noqulay so'zlarni yumshoqroq va maqbulroq so'zlar bilan almashtirish. Evfemizm qo'pollikni oldini olish va vaziyatni yumshatish uchun ishlatiladi.

2. Sintaktik uslubiy vositalar (Syntactical stylistic devices). Ushbu guruh gap tuzilishini o'zgartirish, so'zlarning tartibini almashtirish va gapga qo'shimcha ma'no yuklash orqali yaratiladigan uslubiy vositalarni o'z ichiga oladi.

Inversiya (Inversion)-gapdagi so'zlarning odatiy tartibini o'zgartirish. Inversiya gapning urg'usini o'zgartirish va o'quvchining diqqatini jalb qilish uchun ishlatiladi. **Parallel tuzilma (Parallel Construction)**-gapning bir nechta qismlarida bir xil grammatik tuzilishni takrorlash. Parallel tuzilma ritm yaratish va gapning ta'sirini kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Ellipsis (Ellipsis)-gapdan ba'zi so'zlarni tushirib qoldirish. Ellipsis gapning ixchamligini ta'minlash va diqqatni asosiy ma'noga qaratish uchun ishlatiladi.

Takror (Repetition)-gapdagi so'zlarni, iboralarni yoki gaplarni takrorlash. Takror ta'kidlash, ritm yaratish va hissiy ta'sirni kuchaytirish uchun ishlatiladi. **Antiteza**

(Antithesis)-Bir-biriga zid bo'lgan tushunchalarni bir gapda qarama-qarshi qo'yish. Antiteza fikrni

¹ Galperin, I.R. (1981). Stilistika (3-nashr). Moskva: Vysshaya Shkola. (SSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirligi tomonidan chet tillari institutlari va fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan).

aniqroq ifodalash va o'quvchining diqqatini jalb qilish uchun ishlatiladi.

Retorik so'roq (Rhetorical Question)-javob talab qilmaydigan so'roq. Retorik so'roq o'quvchining diqqatini jalb qilish va uning fikrini o'zgartirish uchun ishlatiladi.

Ingliz media diskursida xabar berish jarayoni, faktlarni oddiygina taqdim etishdan ko'ra murakkabroq jarayon bo'lib, bunda leksik (so'z tanlovi) va sintaktik (gap tuzilishi) uslubiy vositalar muhim rol o'ynaydi. Ushbu uslubiy vositalar axborotning yetkazilish uslubini shakllantirishga, auditoriya idrokiga ta'sir etishga va matnga ma'no yuklashga xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot ingliz media diskursida xabar berish jarayonida leksik va sintaktik uslubiy vositalarning funkcionalligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, buning uchun aralash uslublar, ya'ni Kvantitativ (miqdoriy) va Kvalitativ (sifatli) tahlil usullari qo'llaniladi. Tadqiqot uchun ma'lumotlar to'plami quyidagi manbalardan olindi. Nufuzli ingliz media tashkilotlari BBC News², The Guardian³, The New York⁴ Times va boshqa keng auditoriyaga ega bo'lgan va ishonchli manbalar sifatida tan olingan media platformalaridan olingan maqolalardan foydalanildi. Dolzarb mavzular-1-Jadval. Leksik vositalarning Chastota Tahlili

Leksik Vosita	BBC News	The Guardian	The New York Times	Reuters	CNN	Umumiy chastota
Epithetlar	8	12	10	7	9	46
Metaforalar	3	5	4	2	3	17
Evfemizmlar	1	2	1	0	1	5
Antiteza	2	3	2	1	2	10

1-izoh: Jadvaldagi raqamlar har bir maqolada ushbu leksik vositaning necha marta ishlatilganini ko'rsatadi.

Epithetlar-eng ko'p ishlatiladigan leksik vosita bo'lib, o'rtacha 9.2 ta epithet har bir maqolada uchraydi. The Guardian gazetasida epithetlar soni 12 ta bo'lib, bu gazeta voqealarni baholash va o'quvchiga hissiy ta'sir o'tkazishga ko'proq e'tibor qaratadi.

² BBC News – British Broadcasting Corporation (Britaniya Teleradiokompaniyasi)ning yangiliklar bo'limi. BBC News 1922-yilda radio orqali yangiliklar eshittirishni boshlagan. Televideniye orqali yangiliklar 1954-yilda efirga uzatila boshlangan. Internetdagi sayti – BBC News Online – 1997-yilda ishga tushirilgan.

siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy muammolar, madaniyat va xalqaro munosabatlar kabi keng qamrovli mavzularga oid maqolalardan foydalanildi.

Kvantitativ tahlil ingliz media diskursida xabar berish jarayonida eng ko'p ishlatiladigan leksik va sintaktik uslubiy vositalarni aniqlashga qaratilgan. Ma'lumotlar to'plami nufuzli ingliz media tashkilotlaridan (BBC News, The Guardian, The New York Times va boshqalar) olingan turli janrdagi (yangiliklar maqolalari, tahliliy maqolalar, blog postlari) maqolalardan iborat.

1. BBC News: *"Ukraine conflict: Russia intensifies attacks on key cities"*

2. The Guardian: *"Climate change: Global temperatures set to rise to alarming levels"*

3. The New York Times: *"Economic downturn: Unemployment rates soar across the US"*

4. Reuters: *"Political scandal: Prime Minister faces allegations of corruption"*

5. CNN: *"Natural disaster: Hurricane devastates coastal regions"*

Leksik vositalar bo'yicha kvantitativ tahlilda quyidagi leksik vositalarni tahlil qilamiz: Epithet, Metafora, Evfemizim, Antiteza, .

Sinonimlar-o'rtacha 5.4 ta sinonim har bir maqolada ishlatilgan. Sinonimlardan foydalanish matnning uslubiy rang-barangligini oshirish va takroriylikni oldini olishga xizmat qiladi.

Metaforalar nisbatan kamroq o'rtacha 3.4 ta ishlatiladi, lekin ular murakkab tushunchalarni

³ Buyuk Britaniya kundalik gazetasi va yangiliklar veb-sayti. 1821-yilda "The Manchester Guardian" nomi bilan tashkil etilgan.

⁴ The New York Times, Amerika kundalik gazetasi, 1851-yilda tashkil etilgan. New York, AQSh

soddalashtirish va o'quvchi tasavvurini uyg'otish uchun muhim hisoblanadi.

Evfemizmlar - eng kam uchraydigan leksik vosita o'rtacha 1 ta. Evfemizmlardan foydalanish noqulay ma'lumotlarni yumshatish maqsadida qo'llaniladi.

Zid ma'noli so'zlar - o'rtacha 2 ta ishlatiladi. Bu ziddiyatlarni ta'kidlash va

2-Jadval. Sintaktik vositalarning chastota tahlili

Leksik Vosita	BBC News	The Guardian	The New York Times	Reuters	CNN	Umumiy chastota
Inversiya	0	1	0	0	1	2
Parallel tuzilma	2	3	2	1	2	10
Ellipsis	1	2	1	0	1	5
Takror(Repetitsiya)	1	2	1	0	1	5

2-izoh: Jadvaldagi raqamlar har bir maqolada ushbu sintaktik vositaning necha marta ishlatilganini ko'rsatadi.

Parallel tuzilma: Eng ko'p ishlatiladigan sintaktik vosita bo'lib, o'rtacha 2 ta parallel tuzilma har bir maqolada uchraydi. Parallel tuzilma gaplarning ritmini va ta'sirini kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Ellipsis va Takror: Ushbu vositalardan o'rtacha 1 tadan foydalaniladi. Ellipsis gapning ixchamligini ta'minlasa, takror ma'lumotni ta'kidlashga yordam beradi.

Inversiya: Eng kam uchraydigan sintaktik vosita. Inversiya gapdagi urg'uni o'zgartirish uchun ishlatiladi, ammo ommaviy axborot vositalarida kam qo'llaniladi.

Kvantitativ tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz media diskursida epithetlar va sinonimlar kabi leksik vositalar eng ko'p qo'llaniladi. Bu vositalar voqealarga baho berish, o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilish va matnning uslubiy rang-barangligini oshirish uchun muhimdir. Sintaktik vositalardan parallel tuzilma va ellipsis eng keng tarqalgan bo'lib, bu gaplarning ta'sirchanligi va ixchamligini ta'minlaydi. Umumiy olganda, bu tadqiqot ingliz media diskursida xabar berish uslubining murakkabligini va til vositalaridan maqsadli foydalanish muhimligini ta'kidlaydi.

1-misol. BBC News - *"Ukraine war: Russia intensifies attacks on key cities"* Asl matn- *"The fierce fighting in Ukraine has entered a new phase, with Russia intensifying its attacks on key cities, resulting in widespread destruction and a growing*

o'quvchining diqqatini qarama-qarshi jihatlariga jalb qilish uchun qo'llaniladi.

Sintaktik vositalar bo'yicha kvantitativ tahlilda quyidagi sintaktik vositalarni tahlil qilamiz: Inversiya, Parallel tuzilma, Ellipsis, Takror.

humanitarian crisis." Leksik Vositalar: Epithetlar: *"shiddatli janglar"* (*fierce fighting*) - bu epithet janglarning shiddatini va zo'ravonligini ta'kidlaydi, o'quvchida tashvish va xavotir hissini uyg'otadi. *"asosiy shaharlar"* (*key cities*) - bu atama hujumlarning strategik ahamiyatini ko'rsatadi va o'quvchining diqqatini asosiy nishonlarga jalb qiladi. *"keng tarqalgan vayronagarchilik"* (*widespread destruction*) - bu ibora vayronagarchilikning ko'lamini va og'irligini ta'kidlab, vaziyatning jiddiyligini oshiradi. *"kuchayib borayotgan gumanitar inqiroz"* (*growing humanitarian crisis*)-inqirozning davom etayotganligini va yomonlashayotganini ko'rsatadi, o'quvchida hamdardlik va yordam berishga chaqiriq hissini uyg'otadi. Fe'l tanlovi: *"kuchaytirmoqda"* (*intensifying*) - Rossiyaning hujumlarini kuchaytirayotganini ta'kidlaydi va bosim kuchayotganini ko'rsatadi.

Sintaktik vositalar: murakkab gap tuzilishi-gapning uzunligi va murakkabligi vaziyatning jiddiyligini va murakkabligini aks ettiradi. Matnda hissiyotga berilishdan ko'ra faktlarni taqdim etish ustunlik qiladi, bu xabarning ishonchliligini oshiradi. Ushbu misolda leksik vositalar o'quvchiga voqealarning jiddiyligini va og'irligini his qilishga yordam beradi, sintaktik vositalar esa ma'lumotning aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi. 2-

misol: The Guardian - “*Climate change: Global temperatures set to rise to alarming levels*” Asl matn: “*The world is on track to exceed the 1.5C warming limit, with devastating consequences for the planet, scientists warn.*”

Leksik vositalar: Epithetlar: “*halokatli oqibatlar*” (*devastating consequences*) - bu epithet global isishning potentsial natijalarining og‘irligini ta’kidlaydi.

Fe’l tanlovi: “*oshish*” (*exceed*)-chegaradan oshib ketish xavfini ko‘rsatadi, bu o‘quvchida tashvish uyg‘otadi. “*Ogohlantirmoqda*” (*warn*) - olimlarning jiddiyligini va xavotirlarini ta’kidlaydi, ularning so‘zlariga e’tibor berishga undaydi.

Sintaktik vositalar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayonet - gapning qisqa va aniq tuzilishi o‘quvchiga asosiy xabarni tezda tushunishga yordam beradi. Fakt va ogohlantirish kombinatsiyasi: ilmiy dalillar va ogohlantirishning uyg‘unligi o‘quvchiga mas’uliyatni his qilishga va harakat qilishga undaydi. Ushbu misolda leksik vositalar vaziyatning xavfliligini va jiddiyligini ko‘rsatishga yordam beradi, sintaktik vositalar esa xabarning aniq va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Natijalar va muhokama. Ushbu tadqiqot ingliz media diskursida xabar berish jarayonida leksik va sintaktik uslubiy vositalarning funktsionalligini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy natijalarga olib keldi.

1. Leksik vositalarning ustunligi. Epithetlar, metaforalar va evfemizmlar kabi leksik vositalar ingliz media diskursida keng qo‘llaniladi. Ushbu vositalar voqealarga baho berish, o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish va muayyan qarashlarni ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi. Kvantitativ tahlil shuni ko‘rsatdiki, epithetlar eng ko‘p ishlatiladigan leksik vosita hisoblanadi.

2. Sintaktik tuzilmalarning ta’siri. Parallel tuzilmalar, inversiya va ellipsis kabi sintaktik tuzilmalar xabarning ta’sirchanligini oshirish va diqqatni asosiy elementlarga qaratish uchun ishlatiladi. Sifatli tahlil ushbu tuzilmalarning xabarning ohangini va ritmini qanday o‘zgartirishini ko‘rsatdi.

3. Galperinning nazariyasining qo‘llanilishi. Galperinning stilistik vositalar nazariyasi ingliz media diskursida leksik va sintaktik vositalarning funktsiyalarini tahlil qilish uchun samarali asos bo‘lib xizmat qildi. Nazariya yordamida tanlangan

misollarda har bir vositaning maqsadi va o‘quvchiga ta’siri aniqlab berildi.

4. Turli media manbalarining farqlari. Turli xil media tashkilotlari (BBC News, The Guardian, The New York Times va boshqalar) leksik va sintaktik vositalardan foydalanishda farqlar ko‘rsatdi. Ba’zi manbalar voqealarni baholashga ko‘proq e’tibor qaratgan bo‘lsa, boshqalari aniq va faktik xabar berishga ustunlik berdi.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ingliz media diskursi oddiy faktlarni yetkazishdan ko‘ra, axborotni muayyan maqsadlar uchun shakllantirish jarayonidir. Muxbirlar va muharrirlar so‘z tanlash, gap tuzish va uslubiy vositalardan foydalanish orqali xabarning ta’sirini kuchaytiradi va o‘quvchi fikrini shakllantiradi. Ishning muhim jihati shundaki, Galperinning stilistik vositalar nazariyasi ingliz media diskursini tahlil qilish uchun qulay va samarali usul ekanligi tasdiqlandi. Ushbu nazariya nafaqat leksik va sintaktik vositalarni aniqlashga, balki ularning funktsiyalarini tushunishga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz media diskursida leksik va sintaktik uslubiy vositalarning funktsionalligi nihoyatda muhim. Ushbu vositalar xabar berish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, xabarning ta’sirchanligini oshirish, o‘quvchi idrokini shakllantirish va axborotni muayyan nuqtai nazardan etkazishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot media savodxonligini oshirish va ommaviy axborot vositalari matnlarini tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Halliday, M. A. K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar* (2-nashr). London:Edward Arnold.

2. Fowler, R. (1991). *Language in the News: Discourse and Ideology in the Press*. London: Routledge.

3. Bakhtin, M. M. (1981). *The Dialogic Imagination: Four Essays*. A. University of Texas Press.

4. Umidullayevna, S. M. (2022). Semantic Analysis of English Poetic Terms in Literary Dictionaries. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(1), 38-46. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=w-pR1LIAAAAJ&citation_for_view=w-pR1LIAAAAJ:kz9GbA2Ns4gC